

TUPROQ VA SUV OMILI

To'xtamurodova Nafosat Xo'shmurod qizi

“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti assistenti.

Boqiyeva Madinabonu Mahmasodiq qizi

“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi.

O'ralova Gulida Ergash qizi.

“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12733713>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tuproq omilining asosiy maqsadi tuproqlarni unumdorligiga qarab tasniflashdir. Tuproq bonitirovkasi tuproq unumdorligini xarakterlovchi tabiiy, ya'ni qishloq xo'jaligi. ekinlari hosildorligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Shuningdek, Tuproq bonitirovkasida dalaning o'lchami, geometrik shakli, nishabligi, iqlim sharoiti va boshqa ham hisobga olinishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tuproq omili, bonitirovka, resurs, gidrosfera, suv, sug'orma dehqonchilik, sizot.

SOIL AND WATER FACTOR

Abstract. In this article, the main purpose of soil testing is to classify soils according to their fertility. Soil testing is natural, that is, agricultural, characterizing soil fertility. it is carried out taking into account the characteristics that are closely related to the productivity of crops. Also, information about the size of the field, geometric shape, slope, climatic conditions, and other considerations are given in the soil inspection.

Key words: soil factor, otsenka, resource, hydrosphere, water, oroshaemoe zemledelie, sisot.

ПОЧВЕННО-ВОДНЫЙ ФАКТОР

Аннотация. В данной статье основной целью исследования почв является классификация почв по плодородию. Почвенные испытания являются природными, то есть сельскохозяйственными, характеризующими плодородие почв. его проводят с учетом особенностей, тесно связанных с продуктивностью сельскохозяйственных культур. Также при обследовании почвы приводятся сведения о размерах поля, геометрической форме, уклоне, климатических условиях и других соображениях.

Ключевые слова: почвенный фактор, оценка, ресурс, гидросфера, вода, орошаемое земледелие, сисот.

Tuproq omili - yer uchastkasida tarqalgan unumli tuproq qatlamining fiziologik hamda ximiyaviy tarkibini, tuproq turi va holati, iqlim sharoiti va yer osti suvlarini joylashishi kabi bir qator omillarni o'zida jamlaydigan jarayondir. **Tuproq bonitirovkasi** (lot. bonitas — sifatlilik) — tuproq unumdorligini qiyosiy baholash. Tuproq bonitirovkasi 100 ballik shkala bo'yicha ifodalanadi.

Tuproq bonitirovkasining asosiy maqsadi tuproqlarni unumdorligiga karab tasniflashdir.

Tuproq bonitirovkasi tuproq unumdorligini xarakterlovchi tabiiy, ya'ni qishloq xo'jaligi. ekinlari hosildorligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi.

Shuningdek, Tuproq bonitirovkasida dalaning o'lchami, geometrik shakli, nishabligi, iqlim sharoiti va boshqa ham hisobga olinadi. Tuproq bonitirovkasi yerni iqtisodiy baholash, yer kadastrini yuritish, melioratsiya hamda dehqonchilik sistemasini takomillashtirish va boshqa uchun zarur.

Suv resurslari – foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yer usti, yer osti suvlari va tuproqdagi nam zaxiralari. Sr. asriy (yer usti qatlamlari, Qutb va baland tog' muzliklari, yirik ko'llar va shu kabida to'plangan chuchuk suvlar) va qayta tiklanadigan (daryo oqimlari, yer osti suvlarining o'zgaruvchan va dinamik zaxiralari, ko'llar hajmining bir qismi va boshqalar) turlarga bo'linadi.

Suv resurslari deganda suv ob'yektlari – daryo, ko'l, dengizlar ham tushuniladi, chunki ulardan kema qatnovi, gidroenergetika, baliq xo'jaligi, dam olish, turizm va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. Gidrosferadagi turg'un suv zaxiralarning faqat 2,5% gina chuchuk suv (uning faqat salkam 1% dan kishilar foydalana oladilar), 70% muzliklar, qolgani tuproq nomi shaklida.

Daryolar, oqar ko'llar va ko'pchilik yer osti suvlari ham chuchuk. Yerning Dunyo okeani, yer osti suvlari, muzliklar, tuproqdagi nam, daryo(o'zan) suvlari, atmosfera bug'lari—gidrosferada, ayrim hisob kitoblarga ko'ra, 1454 327,2 ming km³ turg'un suv resurslari bor.

Nazariy jihatdan suv resurslari bitmas tuganmas, chunki bu resurslardan oqilona foydalanilganda suv resurslari aylanib yangilanib turadi. Lekin ko'pgina mamlakatlarda suv resurslaridan qishloq xo'jaligi., sanoat, kommunal xo'jaligi va boshqa maqsadlarda foydalanishning ortishi hamda turli omillar ta'sirida, birinchi navbatda ishlatiladigan iflos suvlarni tozalamay daryo va ko'llarga oqizilishidan suv manbalarining ifloslanishi natijasida 20-asr oxiriga kelib insoniyat oldida suv takchilligi muammosi paydo bo'ldi.

BMT tomonidan kelajakda insoniyatni chuchuk suv bilan ta'minlash muammolariga bag'ishlangan Suv resurslari bo'yicha 3jahon forumi o'tkazildi (2003, Yaponiya, Kioto), 2003-yil Xalqaro chuchuk suv yili deb e'lon qilindi. O'rta Osiyoda Sr., asosan, daryo oqimlari va yer osti suvlarining dinamik zaxiralari (tiklanadigan resurslar), shuningdek, tog'lardagi muzliklar va ko'llarning asriy suv zaxiralaridan tashkil topadi. Daryo oqimlari tog'larda mavsumiy qor qatlamlari, muzliklar va krrliklarning erishi, shuningdek, yog'inlar natijasida hosil bo'ladi.

Tog'lardagi yer osti suvlari yukrridagi sanab o'tilgan suv olish manbalari hisobiga vujudga keladi. Tog'oldi va sug'orma mintaqalarda yer osti suvlari, asosan, yer usti suvlari hisobiga to'yinadi. Daryo va yer osti suvlarining suv resurslari o'zaro bir-biriga bog'liq. Yer osti suvlaridan juda katta miqdorda foydalanish daryo oqimini kamaytirib yuboradi.

O'rta Osiyoning sug'orma dehqonchilik mintaqalarida daryo suvlarining yillik resurslari 114 km³ ni, jumladan, Amudaryoda (Zarafshon va Qashqadaryo bilan birga) – 74,7 km³, Sirdaryoda – 39 km³, Tajan va Murg'obda – 2,4 km³ ni tashkil etadi. Suv resurslari hududiy jihatdan notekis joylashgan bo'lib, tog'larda hosil bo'lsada, keng tarmoqli sug'orish kanallari yordamida, asosan, tekisliklarda foydalaniladi.

Suv resurslarining hududiy jihatdan notekisligi suv iste'molidagi tanqislikni vujudga keltiradi. Uni bartaraf etish uchun oqimning bir qismi mintaqadan boshqasiga qayta taqsimlanadi.

Oqimni qayta taqsimlash Amudaryo (Qoraqum, AmuBuxoro, Katta Hisor, Qarshi kanallari va boshqalar) va Sirdaryo (Katta Farg‘ona, Katta Andijon, Katta Namangan, Janubiy Mirzacho‘l kanallari va boshqalar) havzalarida juda katta hajmda amalga oshirilgan.

Xulosa. Tuproqlarni baholash madaniy o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, tuproqning o‘z barqaror belgilari va xossalariga ko‘ra o‘tkaziladi.

Ko‘pchilik hollarda yerlarni baholashda tuproqning quyidagi asosiy xususiyatlari va tabiiy sharoitlari: genetik alomatlari, sug‘orila boshlangan davrning uzoq – yaqinligi, madaniylashtirilganlik darajasi, harorat resurslari bilan ta‘minlanganligi, mexanik tarkibi, tuproq hosil qiladigan jinslar genezisi, tuproq qatlamining sizot suvlarini o‘tkazuvchanligi, sho‘rlanish darajasi, eroziyaga uchragani, sertoshligi, gipslashgani va hakazolar hisobga olinadi.

REFERENCES

1. Muhamedov T., Tuproq eroziyasi dehqonchilik uchun ofat, T., 1973; Muxitdinov K., O‘zbekistonda tuproq eroziyasi va unga qarshi kurash choralari, T., 1976; Mirzajonov va boshqa, Eroziyaga uchragantuproqparda yuqori hosil olish, T., 1980.
2. O.Ramazonov, O.Yusupbekov. “Tuproqshunoslik va dehqonchilik” T.: Sharq, 2005.
3. H.Atabayeva, O.Qodirho‘jaev. "O'simlikshunoslik" o'quv qo'llanm a. T. Yangi asr avlodi, 2006.
4. Sh.Xoliqulov, P.Uzoqov, I.Boboxo'jayeov “Tuproqshunoslik” Samarqand: «N.Doba» XT, 2011.
5. Plant science. Growth, Deyelopment and Utilization o f Cultivated Plants. 2011.
6. A.Axatov. «Tuproq resurslari va ulardan foydalanish», T: TIMI bosmaxonasi, 2016.
7. 7. Ramazonov, S.Buriyev. “Tuproqshunoslik va dehqonchilik” T.: Barkamol fayz media, 2018.